

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.12.2020.I.09.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

RAVSHANOV MALIK NAIMOVICH

**YO‘L-TRANSPORT MAJMUASI RESURS SALOHİYATI BOSHQARUVI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 –«Menejment»
08.00.05 – «Xizmatlar ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti»**

**IQTISOD FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Oglavleniye avtoreferata doktorskoy (DSc) dissertatsii
Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Ravshanov Malik Naimovich

Yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyati boshqaruvi samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish 3

Равшанов Малик Наимович

Совершенствование методологии повышения эффективности управления ресурсным потенциалом дорожно-транспортного комплекса 37

Ravshanov Malik Naimovich

Improving the methodology for improving the efficiency of managing the resource potential of the road transport complex 73

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 78

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.12.2020.I.09.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

RAVSHANOV MALIK NAIMOVICH

**YO‘L-TRANSPORT MAJMUASI RESURS SALOHİYATI BOSHQARUVI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 –«Menejment»
08.00.05 – «Xizmatlar ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti»**

**IQTISOD FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/Iqt517 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchilar:

Ikramov Murat Akramovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Samatov G'affor Allaqulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

To'rayev Baxodir Xatamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saidov Mash'al Samadovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Mamayunus Karshibayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.15/31.12.2020.I09.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil « 18 » may kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent shahri, Temiryo'chilar ko'chasi, 1-uy. Tel/faks.: (99871) 293-57-54, e-mail: rector@tstu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (162 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent shahri, Temiryo'chilar ko'chasi, 1-uy. Tel/faks.: (99871) 293-57-54)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 05 » may kuni tarqatildi.
(2024 yil « 05 » may dagi 5 raqamli reyestr bayonnomasi).



O.K. Abduraxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

M.I. Akbarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n.

A.A. Gulamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

– Farg‘ona vodiysi yo‘nalishlarida davlat-xususiy sherikligi asosida avtomobil yo‘llarini qurish; shahar va tumanlarni jamoat transporti bilan to‘liq qamrab olish, yangi avtobuslar sonini 5 mingga va elektrobuslar sonini 2 mingga yetkazish; Toshkent – Samarqand, Samarqand – Navoiy – Buxoro yo‘nalishlarida yangi tezyurar temir yo‘llarini qurish, tezyurar poyezdlarda yo‘lovchi tashish sonini 2,5 barobar ko‘paytirish¹ vazifalari belgilab berilgan. Belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish, yalpi ichki mahsulotda transport tizimi ulushini umumjahon ko‘rsatkichlariga yetkazish, yo‘l-transport majmuasi korxonalarini tomonidan jalb qilingan xom-ashyo va energiya resurslari narxlarining barqarorligini ta‘minlash, transport turlari rivojlanish sur‘atlarini mamlakat iqtisodiyoti rivojlanish sur‘atlariga mutanosibligini ta‘minlashda yo‘l-transport majmuasi tarmoqlari resurs salohiyatini samarali boshqarishning metodologik asoslarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2023 yil 14 iyundagi PF-94-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 1 fevraldagi PF-5647-son «Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017 yil 2 dekabrdagi PQ-3422-son “2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Transport tizimlarini boshqarish va unda resurs salohiyatini oshirish metodologiyasini takomillashtirishga oid izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Economic Development Institute (Worldbank, AQSH), Institute for Transportation and Development Policy (AQSH), European Conference of Ministers of Transport (Yevropa Ittifoqi), World Road And Transport Organization (IRU) (Shveytsariya), Moskva transport akademiyasi, Moskva davlat avtomobil-yo‘llar texnika universiteti (MADI), Sibir davlat avtomobil-yo‘llar universiteti (SIBADI) (Rossiya), Xarkov milliy avtomobil-yo‘llar universiteti, Kiyev milliy transport universiteti (KADI) (Ukraina) kabi ilmiy muassasalarda olib borilmoqda.

Jahon miqyosida yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyati boshqaruvi samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida. 2023 yil 11 sentabr, PF-158-son. - <https://lex.uz/docs/6600413>

natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: transport xizmatlariga erishishda inklyuzivlik, tenglik va hammaboplikka asoslangan holda yo‘l-transport majmuasini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan (Institute for Transportation and Development Policy); transport tizimi rivojlanishida xarajatlarni tejash yondashuvining ahamiyati asoslangan (Yeoropen Conferense of Ministers of Transport); yo‘l-transport majmuasi faoliyat ko‘rsatkichlarini integrallashtirish masalalariga ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan (Word Road And Transport Organization); yo‘l-transport majmuasi resurs tejamkorligining mamlakat iqtisodiyotiga ta‘sirini aniqlash uslubiyotlari takomillashtirilgan (Moskva davlat avtomobil-yo‘llar texnika universiteti (MADI), Sibir davlat avtomobil-yo‘llar universiteti (SIBADI) (Rossiya), Xarkov milliy avtomobil-yo‘llar universiteti, Kiyev milliy transport universiteti (KADI)).

Jahonda yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyati boshqaruvi samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi: jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayonida transport tizimi salohiyatini oshirish; inqirozli geosiyosiy vaziyatlarga moslashuvchan yo‘l-transport siyosatini ishlab chiqish; yagona transport-logistika tizimi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish; transport sohasini resurslar bilan optimal ta‘minlash jarayonini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash; transport tizimi salohiyatini baholash; yo‘l-transport majmuasida sinergetik samarani aniqlash yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti, tadbirkorlik, jumladan xizmatlar sohasi subyektlari boshqaruvining fundamental asoslari xorijlik olimlardan J.M.Keynes, R.G.Ehrenberg, R.S.Smith, J.A.Schumpeter, P.FDrucker va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan². Iqtisodiy salohiyatni aniqlash muammolari bo‘yicha MDH ning bir qator olimlari izlanishlar olib borganlar. Jumladan, iqtisodiy salohiyatini baholash va uning samaradorligi masalalari I.I.Feklistov, O.A.Jigunova, A.S.Molchan, A.I.Moroz va boshqalar, resurslardan foydalanish yo‘llarini yaxshilash va iqtisodiy salohiyatni tadqiq etish metodologiyasi R.R.Abduraupov, A.K.Lukovseva, D.V.Pushnaya, A.V.Vasilchikov, A.V.Bogatirev, B.J.Maxmudov, A.YE.Safronov va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan³.

² J.M. Keynes. The General Theory of Employment, Interest, and Money. 2018. – p.430. <https://www.pdfdrive.com/search?q=John+Maynard+Keynes>; Ronald G. Ehrenberg, Robert S. Smith. Modern Labor Economics: Theory and Public Policy, Global Edition. - Pearson. «Taylor & Francis Group», 2014. –p. 688.; Schumpeter, Joseph A. The Theory of Economic Development (1949). JaiGyan, Digital Library of India Item 2015.187354; Drucker, Peter F. The practice of management. - London: Butterworth-Heinemann, 2007. – p. 355. internetarchivebooks

³ Феклистов И.И. Формирование, реализация и развитие ресурсного потенциала организаций строительного комплекса: теоретические и методологические аспекты. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. – Санкт-Петербург, 2011. -511 с. ; Жигунова О.А. Методология анализа и прогнозирования экономического потенциала предприятия. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. – Екатеринбург, 2010. – 339 с.; Молчан А.С. Воспроизводство и капитализация экономического потенциала региональных социально-экономических систем. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. – Краснодар, 2012. – 373 с.; Мороз А.И. Экономическая эффективность использования социально-экономического потенциала региона: теория, методология и практика. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. – Санкт-Петербург, 2012. -383 с.; Абдураупов Р.Р. Совершенствование механизмов управления экономическим потенциалом предприятий с иностранными инвестициями в Узбекистане. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.13. – Ташкент, 2016. -282 с.; Луковцева А.К. Формирование инновационного потенциала социально-

Transport tizimining rivojlanishi, uning iqtisodiy samaradorligi M.O.Surayeva, V.F.Lukinix, N.Y.Sandakova, YE.N.Garmanov, M.A.Ikramov, Z.X.Saidov, G.A.Samatov, Y.K.Karriyeva, A.A.Gulamov, J.S.Fayzullayev, A.A.Zoxidov, G.M.Kasimov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan bo‘lsa⁴, xizmat sohasi, jumladan transport xizmatlari sohasi iqtisodiy tizimlarini boshqarish masalalari R.G. Murdick, B. Render, R.S. Russell, A.V.Dmitriyev, A.S.Kravchenko, I.A.Toymensova, M.Q.Pardayev, B.X.To‘rayev, M.T.Aliyeva, I.T.Rustamova va boshqalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan⁵.

Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning iqtisodiyot va uning ayrim tarmoqlarida resurs salohiyatini baholash muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlari natijalarini ilmiy yangilik sifatida e’tirof etish mumkin. Ammo ushbu muammoni

экономического развития Южного Федерального округа. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. – Москва, 2012. -500 с.; Пушная Д.В. Развитие малого бизнеса как фактор повышения эффективности и экономического потенциала сферы услуг. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. – Кисловодск, 2014. -177 с.; Васильчиков А.В. Трансформация механизмов и параметров влияния частных потенциалов на развитие регионов на современном этапе эволюции экономики. Диссертация доктора экономических наук:08.00.05. – Санкт-Петербург, 2020. -294 с.; А.В. Богатырев. Теория и методология организационно-экономического обеспечения ресурсосбережения на промышленных предприятиях/ Диссертация на соиск. учёной степени доктора экономических наук. Нижний Новгород, 2010. – 360 с.; Махмудов Б.Ж. Экономические проблемы ресурсосбережения транспортно-дорожном комплексе Республики Узбекистан (на примере Государственной акционерной компании «Узавтойул»). Диссертация доктора экономических наук: 08.00.04. – Наманган, 2006. – 241с.; Сафронов А.Е. Оценка и использование природно-экономического потенциала российских регионов: методология, инструментарий, позиционирование. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. – Ростов-на-Дону, 2013. -376 с.

⁴ Сураева М.О. Теория и методология инновационного развития железнодорожного транспорта России. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. – Санкт-Петербург, 2012. – 331 с.; Лукиных В.Ф. Теория и методология управления многоуровневой региональной логистической системой. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. – Санкт-Петербург, 2011. -411 с.; Сандакова Н.Ю. Пространственное развитие региона на основе совершенствования транспортной инфраструктуры. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. – Казань, 2019. -424 с.; Е.Н. Гарманов. Экономика дорожного хозяйства. – М.: "Академия (Academia)", 2012; М.А. Икрамов. Стимулирование роста конечных результатов деятельности промышленных предприятий в условиях рыночных отношений: дис. на соиск. учен. степ. д-ра экон. наук: (08.00.05) / Санкт-Петербург. инж.-экон. ин-т им. П. Тольятти, 1992; З.Х. Саидов. Моделирование структуры развития производственно-технической базы дорожного хозяйства (на примере Узбекистана): дис. на соиск. учен. степ. д-ра экон. наук: 08.00.13/ Ташкентский государственный экономический университет, 1991; Г.А. Саматов. Повышение эффективности функционирования регионального пассажирского автотранспортного комплекса: дис. на соиск. учен. степ. д-ра экон. наук: 08.00.05 / Моск. автомоб.-дорож. ин-т. - Ташкент, 1990. - 417 с.; А.А. Гуламов. Темир йўл компаниясининг асосий капиталини иқтисодий жиҳатдан баҳолаш методологиясини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация: 08.00.03/ Тошкент давлат иқтисодиёт университети, 2020. – 223 б.; Зоҳидов А.А. “Марказий Осиё транспорт тизимини самарали бошқариш механизмини такомиллаштириш” мавзусидаги иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси. Тошкент – 2018 йил. 182 б.; Файзуллаев Ж.С. Темир йўл транспорт тизимини иқтисодий ривожлантириш методологиясини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация: 08.00.03/ Тошкент давлат иқтисодиёт университети, 2022. – 243 б.; Қосимов Ғ.М. Транспорт корхоналарида менежмент. –Т.: «Ўзбекистон», 2001. –448 б.

⁵ Robert G. Murdick, Barry Render, Roberta S. Russell. Service Operations Management. Allyn and Bacon, 1990. – 596.; Дмитриев А.В. Формирование и развитие цифровых экосистем транспортно-логистического обслуживания. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. – Санкт-Петербург, 2022. -410 с.; Кравченко А.С. Управление формированием и развитием системы пассажирского автотранспортного обслуживания в региональных курортных агломерациях. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. – Ростов-на-Дону, 2019. – 493 с.; Тойменцева И.А. Стратегическое управление предприятиями сферы услуг автомобильного транспорта: теория и методология. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. – Самара, 2011. -341 с.; Алиева М.Т. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари: иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация: 08.00.05/08.00.13. Тошкент давлат иқтисодиёт университети, 2019. – 264 б.; Рустамова И.Т. Управление деловой репутацией в сфере услуг: теория, методология, практика. Диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. –Душанбе, 2018. – 305 с.

o'rganish natijasida olingan dastlabki xulosalar iqtisodiyotning muhim infratuzilmaviy tarmog'i hisoblanuvchi yo'l-transport majmuasida ishlab chiqarish omillarini ishlatish samaradorligini baholashning uslubiy tamoyillari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini ko'rsatmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yo'l-transport majmuasi ish natijalariga nafaqat faoliyat ko'rsatkichlarining, balki majmua tarkibiga kiruvchi sohalarida foydalaniladigan har bir iqtisodiy resursning ta'sir etish darajasini baholash usullarini aniqlash ham kiradi. Yuqorida sanab o'tilgan mutaxassis va izlanuvchilar tomonidan taklif etilgan usullarning amaliyotda qo'llash imkoniyati cheklangan yoxud yo'l-transport majmuasi korxonalarini faoliyati natijalarini obyektiv tavsiflamaydi. Tadqiqotchi fikricha, majmua tarkibiga kiruvchi xo'jalik subyektlarining resurs salohiyatidan foydalanish natijalarini baholovchi ko'rsatkichlar obyektiv va qo'llanish jihatidan qulay va sodda bo'lishi kerak. Shunga ko'ra, mazkur tadqiqot doirasida transport tizimi tarkibidagi sohalar faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarning ish natijalari samaradorligini belgilashdagi ahamiyati hamda majmua resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini aniqlash imkoniyatini beruvchi ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent avtomobil-yo'llar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ITD-2-53 "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida transport raqobatdoshligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi (2012-2013 yy.) davlat granti hamda 257022-raqamli "Termiz shahrining transport va yo'l transport infratuzilmasini rivojlantirish bosh rejasini ishlab chiqish" xo'jalik shartnomasi (2023 y.) asosidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi yo'l-transport majmuasi resurs salohiyati boshqaruvi samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

resurslarga munosabatning tadrijiy rivojlanishi, resurs salohiyatining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatini ochib berish va uni boshqarishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish;

resurs salohiyatidan foydalanishni belgilovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi va resurslarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uslubiyotini takomillashtirish imkoniyatlarini baholash;

transportning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiquvchi iqtisodiy tushunchalar tizimini takomillashtirish hamda mamlakat yo'l-transport majmuasi iqtisodiy salohiyatini baholashning integrallashgan ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish;

yo'l-transport majmuasining resurslarga bo'lgan ehtiyojiga ta'sir etuvchi omillarning tasnifiy guruhlanishini amalga oshirish, majmuaning resurslarga talabini aniqlash uslubiyotini takomillashtirish va ushbu resurslardan oqilona foydalanish modelini ishlab chiqish;

yo‘l-transport majmuasi boshqaruvini takomillashtirish imkoniyatini beruvchi muvofiqlashtiruvchi boshqaruv modeli asosida majmuaning tashkiliy resurs salohiyatini oshirish yo‘nalishlarini aniqlash;

yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyatini oqilona boshqarish imkoniyatini beruvchi samarali transport siyosatini shakllantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish;

yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyatidan foydalanish ko‘rsatkichlarining sohada yaratilgan qo‘shilgan qiymatga ta‘sirini ekonometrik baholash va kelajakda uning o‘zgarishini prognozlash;

yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyatini oqilona boshqarishning mamlakatda logistika samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ochib berish;

yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini aniqlash uslubiyotlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi yo‘l-transport majmuasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik subyektlari hamda transport resurs salohiyatidan foydalanish bo‘yicha iqtisodiy munosabat ishtirokchilari olingan.

Tadqiqotning predmetini yo‘l-transport majmuasida resurs salohiyatini samarali boshqarish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, guruhlash va umumlashtirish, qiyoslash, tizimli tahlil va sintez, korrelyatsion va regression tahlil, ekspert, monografik, matematik baholash va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “iqtisodiy salohiyat” va “resurs sig‘imidan samarali foydalanish” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni mazkur ta‘riflardagi farqlarni aniqlash hamda turli iqtisodiy kategoriyalar bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, resurslardan samarali foydalanishda boshqaruv tizimini optimallashtirish va iqtisodiyotning oqilona resurs sig‘imini ta‘minlash, iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmini joriy etish bilan bir qatorda innovatsion yondashuvni ta‘minlovchi tadbirkorlik qobiliyatidan samarali resurs sifatida kengroq foydalanish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

avtoyo‘l-transport majmuasida faoliyat yurituvchi biznes tuzilmalarda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish mexanizmi davlat-xususiy sherikligini amaliyotga joriy etish asosida takomillashtirilgan;

yo‘l-transport majmuasida cheklangan resurslarni oqilona sarflash muammosini hal qilishda resurslarga egalik qilish, ularning taqsimoti va sarfi ustidan ma‘muriy nazoratni ta‘minlovchi “Respublika resurs sig‘imi monitoring Markazi”ni tashkil etish taklifi asoslangan;

M-39 «Olmaota – Bishkek – Toshkent – Termiz» xalqaro avtomagistralining muayyan qismida to‘lovli yo‘l qurishning nazariy texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilib, mazkur avtomobil yo‘lini xalqaro talablar asosida qayta qurish va boshqarishni yangi tashkil etiluvchi qo‘shma korxonada shaklidagi aksiyadorlik jamiyati orqali amalga oshirish taklifi asoslangan;

O‘zbekiston transport tizimida jalb qilingan resurslar miqdorining soha qo‘shilgan qiymatiga ta’siri ekonometrik modellashtirish asosida pessimistik, dinamik va optimistik ssenariylar bo‘yicha 2030 yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyatidan samarali foydalanish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va tahlil etish uchun “transport yuki”, “yuk sig‘imi”, “transport xizmatiga erishish imkoniyati”, “resurslar iste’molidagi yakuniy naflilik” kabi integral ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish zaruriyati asoslangan;

iqtisodiyot tarmoqlarida oqilona resurs sig‘imiga erishishni ta’minlovchi mamlakat yo‘l-transport majmuasining resurslarga bo‘lgan talabini aniqlash modellari ishlab chiqilib, ularni majmua boshqaruvida qo‘llash zaruriyati asoslab berilgan;

resurslardan foydalanishning umumiy iqtisodiy samaradorligini ta’minlashda yo‘l-transport majmuasida ishlatiluvchi resurslarning naflilik darajasini baholashning iqtisodiy-matematik modeli ishlab chiqilgan;

mamlakatning xalqaro logistika samaradorligi indeksidagi reytingini oshirishda yo‘l-transport majmuasi resursining ijobiy ta’siri iqtisodiy tizimlarni modellashtirishning ekspert usuli asosida aniqlangan;

muallif tomonidan “avtoyo‘l resursi” deb nomlangan avtomobil yo‘l xo‘jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan subyektlarning biznes foydasini hisoblash uslubiyoti ishlab chiqilgan;

avtomobil transporti xizmati ko‘rsatuvchi provayderlar va yo‘l xo‘jaligi korxonalarini o‘rtasidagi manfaatlar ziddiyati muammosini hal qilish uchun O‘zbekiston Transport vazirligining tegishli bo‘linmalari vakolatiga ularning faoliyatini muvofiqlashtirish vakolatini kiritish taklif etilgan;

tadqiqotda yo‘l-transport majmuasi amaliyotida mulklararo hamkorlikning konsessiya turini amaliyotga joriy etish imkoniyatini beruvchi xalqaro to‘lovli avtomobil yo‘lini qurishning texnik-iqtisodiy asosi bo‘yicha tavsiya ishlab chiqilgan;

yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyatini boshqarish bo‘yicha qarorlar samaradorligini oshirishga imkon yaratuvchi aholining avtotransport xizmatiga erishish imkoniyatini aniqlash uslubiyoti taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada foydalanilgan yondashuvlar hamda usullarning ilmiy va uslubiy jihatdan asoslanganligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tadqiqotlarning e’tirofga molik uslubiy asosga egaligi, xulosa va takliflarning transport sohasidagi vakolatli tashkilotlardan o‘tganligi va tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyatini samarali ishlatishning nazariy-uslubiy va metodologik asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflar cheklangan resurslarning samaradorligi uchun mas'ul vazirlik va idoralar, iqtisodiyotning turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik subyektlari tomonidan ishlatilishi, hamda oliy ta'lim muassasalaridagi tegishli fan yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayonida foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston Respublikasi yo'l-transport majmuasi resurs salohiyati boshqaruvi samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "iqtisodiy salohiyat" va "resurs sig'imidan samarali foydalanish" tushunchalarining iqtisodiy mazmunini mazkur ta'riflardagi farqlarni aniqlash hamda turli iqtisodiy kategoriyalar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash, resurslardan samarali foydalanishda boshqaruv tizimini optimallashtirish va iqtisodiyotning oqilona resurs sig'imini ta'minlash, iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmini joriy etish bilan bir qatorda innovatsion yondashuvni ta'minlovchi tadbirkorlik qobiliyatidan samarali resurs sifatida kengroq foydalanish nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Soha iqtisodiyoti va menejmenti" nomli darsligi (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 20 oktabrdagi 441-sonli buyrug'i) va "Transport iqtisodiyoti" nomli o'quv qo'lanmasini (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023 yil 14 iyuldagi 228-sonli buyrug'i) tayyorlashda foydalanilgan. Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy o'quv yurti talabalarining yo'l-transport majmuasidagi "iqtisodiy salohiyat" va "resurs sig'imidan samarali foydalanish" tushunchalarining takomillashtirilgan iqtisodiy mazmuni bo'yicha nazariy bilim va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

avtoyo'l-transport majmuasida faoliyat yurituvchi biznes tuzilmalari va transport xizmatlari ko'rsatish sohasida manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish mexanizmini davlat-xususiy sheriklikni amaliyotga joriy etish asosida takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining Investitsiyalar va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'limi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2023 yil 29 noyabrdagi 2/8280-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi mamlakatdagi yo'l-transport majmuasi davlat mulkini boshqarishda konsession munosabatlarni qo'llash sohalarini aniqlashtirish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish imkonini bergan;

yo'l-transport majmuasida cheklangan resurslarni oqilona sarflash muammosini hal qilishda resurslarga egalik qilish, ularning taqsimoti va sarfi ustidan ma'muriy nazoratni ta'minlovchi "Respublika resurs sig'imi monitoring Markazi"ni tashkil etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining Strategik rejalashtirish va metodologiya boshqarmasi hamda "O'zbekiston temir yo'llari" Aksiyadorlik jamiyatining Iqtisodiy tahlil va prognozlash boshqarmasi ish faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2023 yil 29 noyabrdagi 2/8280-sonli hamda "O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2023 yil 28 noyabrdagi 06/4038-23-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning

amaliyotga joriy etilishi monitoring markazining tegishli boshqaruv algoritmi asosida mamlakat iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan jamiyat resurslaridan oqilona foydalanish jarayonini nazorat qilish imkonini bergan;

M-39 “Olmaota – Bishkek – Toshkent – Termiz” xalqaro avtomagistralining muayyan qismida to‘lovli yo‘l qurishning nazariy texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilib, mazkur avtomobil yo‘lini xalqaro talablar asosida qayta qurish va boshqarishni yangi tashkil etiluvchi qo‘shma korxonada shaklidagi aksiyadorlik jamiyati orqali amalga oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining Xalqaro tashuvlar va logistika boshqarmasi tomonidan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2023 yil 29 noyabrdagi 2/8280-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi ushbu to‘lovli avtomobil yo‘lini qurish va boshqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi;

O‘zbekiston transport tizimida jalb qilingan resurslar miqdorining soha qo‘shilgan qiymatiga ta’siri ekonometrik modellashtirish asosida pessimistik, dinamik va optimistik ssenariylar bo‘yicha 2030 yilgacha prognoz ko‘rsatkichlaridan “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ faoliyatida foydalanilgan (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2023 yil 28 noyabrdagi 06/4038-23-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatning uzoq muddatli istiqboldagi daromadlari hajmi dinamikasini aniqlash hamda asosiy faoliyat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 2 ta mahalliy ilmiy amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan va ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 36 ta ilmiy ish, shu jumladan 2 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta, jumladan 11 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan bo‘lib, umumiy hajmi 246 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Resurs salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida iqtisodiy resurslarga munosabatning tarixiy shakllanish bosqichlariga retrospektiv munosabat bildirilgan, resurs salohiyati samaradorligining mohiyati, tasnifi va tushunchalari ilmiy talqin etilgan, iqtisodiy salohiyatni belgilovchi resurslarning tasnifiy guruhlanishi amalga oshirilgan, iqtisodiy salohiyatni belgilab beradigan mavjud iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi va mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy

islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida resurslar iste'molidagi o'zgarishlar baholangan.

Mazkur tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, insoniyat rivojlanish bosqichlarini mavjud resurslarga bo'lgan munosabatning o'zgarishiga qarab davrlarga bo'lib chiqildi (1-jadvalga qar.).

1-jadval

Resurslarga munosabatning tarixiy shakllanishi⁶

tt №	Tadqiqotchilar sulolasi	Namoyondalar	Muammoga munosabat
1	2	3	4
1.	Qadimgi dunyo va o'rta asr ilm ahli (faylasuflar)	Suqrot, Ksenofort ⁷ , Aflotun ⁸ , Arastu ⁹ , Farobiy ¹⁰	Resurslarning tasnifi sodda, mehnat resursining dualistik mazmun kasb etishi
2.	Klassik va neoklassiklar	A.Smit, D.Rikardo, L.Valras, A.Marshall, J.B.Klark ¹¹	Ishlab chiqarish omillari – resurslarning klassik tasnifi amalga oshirilgan, tadbirkorlik qobiliyati haqidagi dastlabki fikrlar
3.	Institutsional yondashuv namoyondalari	Y.Shumpeter, J.M.Keyns, J.Xiks, F.Xayyek, P.Samuelson, J.K.Gelbreyt, Y.Kornai, R. Lukas, T. Sardjent va h.k ¹² .	Tadbirkorlik qobiliyati ishlab chiqarish omili sifatida «qonuniy» tasnifga kiritilgan, innovatsion resurs haqida dastlabki fikrlar
4.	Neoinstitutsional yondashuv namoyondalari	Jeymes Byukenen, Jorj Stigler ⁶ , Ronald Kouz ¹³ va h.k.	Ijtimoiy resurs, innovatsion resurs, axborot resurslarining ahamiyati targ'ib qilina boshlandi. Mulkchilik asoslarining ahamiyati va davlatning iqtisodiy munosabatlardagi ishtiroki mexanizmlari targ'ib qilina boshlandi

Insoniyat tarixida dinlarning vujudga kelishi va ularning rivojlanishi iqtisodiy faoliyat jabhasiga bevosita ta'sir o'tkazgan. Islom dinining paydo bo'lgandan boshlab keng hududlarga tezlik bilan tarqalishiga asosiy sabablardan biri, albatta,

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁷ Ксенофонт. Домострой/Перевод С.И. Соболевского. knigogid.ru/books/1142017-domostroy/toread

⁸ Альберт К.[en] О понятии философии у Платона: монография. / Пер. с нем., предисловие и примечание Буланенко М.Е. Владивосток: Изд-во Дальневосточного федерального университета, 2012. — 120 с. — ISBN 978-5-7444-4268-6-6.

⁹ Орлов Е. В. Аристотель о началах человеческого разума / отв. ред. В. П. Горан; Рос. Акад. наук, Сиб. отделение, Институт философии и права. — Новосибирск: Издательство СО РАН, 2013. — 303 с. ISBN 978-5-7692-1336-6


¹⁰ Фозил одамлар шахри. Абу Наср Форобий / Таржимонлар Абдусодик, Ирисов, Маркам Махмудов, Урфон Отажон. Масул мухаррирлар М.Хайруллаев, М.Жакбаров. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. - 320 б.

¹¹ Блауг М. 100 великих экономистов до Кейнса = Great Economists Before Keynes: A Introduction to the Lives and Works of 100 Economists of the Past. — Экономическая школа год = 2005. — С. 704. — ISBN 5-902402-11-5.

¹² Блауг М. 100 великих экономистов после Кейнса = Great Economists since Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. — СПб.: Экономикс, 2009. — 384 с

¹³ Коуз Р. Фирма, рынок и право / пер. с англ. Б. Пинскера. — М.: Дело ЛТД, 1993. — 192 с. — ISBN 5-86461-133-6

uning inson uchun eng muhim hisoblanuvchi xo‘jalik yuritish tizimiga ijobiy islohotlar olib kelganligidir. Tadqiqotda, iqtisodiy taraqqiyotni belgilab bergan resurslarga munosabatning islomga xos bu modelini «islomiy resurs taqsimoti fenomeni», deb atash taklif etildi (1-rasmga qar.).



1-rasm. «Islomiy resurs taqsimoti» fenomeni¹⁴

Salohiyatlar nazariyasi bo‘yicha ilmiy chiqishlarning salmoqli qismi iqtisodiy salohiyat deb nom olgan baholash ko‘rsatkichlari tizimiga bag‘ishlangan. Ushbu ilmiy qarashlarning mualliflik tahlili «iqtisodiy salohiyat» ta’riflaridagi farqlarni aniqlash imkoniyatini berish bilan birga, uning mohiyati, tarkibiy elementlari, «milliy boylik», «iqtisodiy rivojlanish darajasi» kabi kategoriyalar bilan o‘zaro bog‘liqligini anglashga yordam berdi.

Salohiyatni baholash muammolariga bag‘ishlangan izlanishlarni tahlil etish jarayonida tuzilmaviy tarmoq va korxonalar resurs salohiyati kam o‘rganilgan sohalar ekanligi aniqlandi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ushbu muammo juda muhim sanaladi, chunki jamiyat iqtisodiy salohiyati rivojlanishning umumiy holati, umumiy qonuniyatini tavsiflagan bir paytda, tuzilmaviy tarmoqlarda kechayotgan jarayonlar xarakteri ochilmay qoladi. «Salohiyat» atamasi tarmoqqa nisbatan ishlatilganda nafaqat tarmoqning ishlab chiqarish imkoniyatlarini, balki uning mavjud resurslarni oqilona ishlatish orqali iste’molchilar ehtiyojini maksimal darajada qondirish qobiliyatini tavsiflashi kerak.

Ma’lumki, iqtisodiyotda tanlov jamiyat resurslarining cheklanganligi va uning a’zolari ehtiyojining cheksizligi oqibatida vujudga kelib, resurslardan samarali foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

¹⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Jamiyatda mavjud ishlab chiqarish omillari to‘rt guruhdan iborat bo‘lib, bular: yer, kapital, mehnat va tadbirkorlik qobiliyati. Bugungi kunda iqtisodchilar ishlab chiqarish omillari emas, balki «resurslar» atamasidan ko‘proq foydalanishadi.


Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ilgari tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati klassiklar tomonidan e’tirof etilgan ishlab chiqarish omillarining ma’lum bir ko‘rinishdagi mutanosibligiga bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, endilikda bu muvaffaqiyat ishlab chiqarish resurslarining texnologiya, axborot va intellektual resurslar bilan o‘zaro murakkab bog‘liqligini taqozo etadi.

Sanab o‘tilgan resurslardan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish garovi ekanligini yana bir bor qayd etgan holda, bunga erishish yo‘llari borasida chuqur nazariy tadqiqotlarni amalga oshirish talab etiladi:

birinchidan, mamlakatda mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini beradigan optimal boshqaruv tizimiga erishish kerak. Bunga o‘z navbatida jamiyatda shakllangan ma’muriy boshqaruv tizimi, iqtisodiyotni boshqarish uslubiyotini takomillashtirish orqali erishiladi;

ikkinchidan, jamiyatda ishlab chiqarilayotgan tovarlar, ko‘rsatilayotgan xizmatlar, yaratilayotgan g‘oyaviy ishlanmalar birligiga sarflanadigan resurslar miqdori doimiy monitoring obyektiga aylanishi kerak. Bunda mahsulot (tovar, xizmat va g‘oya) ning «resurs sig‘imi»ga alohida e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish yo‘lidan borayotgan O‘zbekiston Respublikasi uchun cheklangan resurslarni oqilona ishlatish masalasi hayot-mamot masalasi bo‘lib, bu muammoni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda raqamli iqtisodiyot dasturi doirasida “Respublika resurs sig‘imi monitoring Markazi”ni tashkil etish taklif etildi (2-rasmga qar.).



2-rasm. O‘zbekiston respublikasi “Resurs sig‘imi monitoring Markazi”ning iyerarxik tuzilishi¹⁵

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Mazkur Markaz jamiyat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradigan boshqaruv tizimining muhim bo'g'ini sanalib, resurslarga egalik qilish, ularning taqsimoti va sarfi ustidan ma'muriy nazoratni ta'minlaydi.

Transport majmuasining resurs sig'imi va resurs qaytimini belgilovchi ko'rsatkichlar resurs salohiyatini baholashda ishlatilishi mumkinligi to'g'risida muallif yondashuvi asoslandi:

birinchidan, solishtirma resurs sig'imi va resurs qaytimi ko'rsatkichlarining moddiy ishlab chiqarish sohasiga tegishli tarmoqlar mahsulotlari, asosan tovarlarga nisbatan qo'llanilishi mumkinligini qayd etish lozim;

ikkinchidan, xizmat ko'rsatish sohasiga oid transport mahsuloti moddiy boyliklarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish bilan bog'liq jarayon bo'lganligi uchun ham uning resurs sig'imidagi materiallar ulushi moddiy ishlab chiqarish sohalarinikiga nisbatan ancha kichik miqdorni tashkil etadi;

uchinchidan, transport xizmatlari ko'rsatish sohasida resurs sig'iminin alohida elementlarini boshqacha nomlash tavsiya qilinadi. Bunda mahsulotni yaratish elementini – yangi transport xizmati turini loyihalash nomi bilan o'zgartirish, mahsulotni ishlab chiqarish va foydalanishga tayyorlash elementlarini bir nom bilan – «transport xizmati ko'rsatish» deb atash, mahsulotni ishlatish, unga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash elementini – «transport xizmati ko'rsatish jarayonining uzluksizligini ta'minlash» deb nomlash tavsiya qilindi.

Dissertatsiyaning **“Mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishda yo'l-transport majmuasi o'rnini baholashning ilmiy-tahliliy asoslarini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida transportning insoniyat taraqqiyotidagi iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati haqidagi ilmiy qarashlar sharhlangan, transport faoliyatining mazmunini belgilovchi zamonaviy iqtisodiy tushunchalar tizimi tanqidiy o'rganilib, mualliflik yondashuvi berilgan, transport tizimining mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishdagi hal qiluvchi ahamiyati asoslangan va iqtisodiyotning ne'matlar yaratish jarayonida transport tashkil etuvchisining o'rnini ko'rib chiqilgan.

Ilm ahli namoyandalari va mutaxassislar transportni iqtisodiyotning yuqori qo'shimcha qiymat hosil qiluvchi tarmoqlari safiga qo'shadilar¹⁶. Buning sababi transportning faoliyati mahsulot tannarxini tushirish va uning qadrini oshirishda muhim ahamiyatga egaligidadir. Transport sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligi sohalariga nisbatan jamiyat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaxshiroq ro'yobga chiqaradi.


¹⁶ Г.А. Саматов. Повышение эффективности функционирования регионального пассажирского автотранспортного комплекса: дис. на соиск.учен. степ. д-ра эконом. наук: 08.00.05 / Моск. автомоб.-дорож. ин-т. - Ташкент, 1990. - 417 с.; Қосимов Ф.М. Транспорт корхоналарида менежмент. –Т.: «Ўзбекистон», 2001. –448 б.

Mamlakatimiz iqtisodchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aniqlanishicha, transport tizimiga jalb etilgan investitsiyalar samaradorligi umumiy iqtisodiy ko'rsatkichga nisbatan anchagina ortda qolmoqda¹⁷.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jarayonlarining boshlanishi bilan transport iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohasidan biri ekanligi haqidagi mulohazalar birin-ketin ilgari surildi. Hatto rejali iqtisodiyot davrida izlanish olib borgan olimlar bu haqiqatni o'zlari bilmagan holda bilvosita tan olganlar: «Transport mahsuloti yangi moddiylashgan mahsulot hisoblanmaydi, tashishning o'zi uning mahsulotidir»¹⁸. Ushbu ta'rifni bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida mukammal ta'riflardan biri sifatida e'tirof etish mumkin.

Avtomobil transporti iqtisodiy faoliyatning xizmat ko'rsatish sohasiga mansub bo'lsa, avtomobil yo'llari qurilish industriyasi va infratuzilmaviy inshootlar majmuasiga mansubligi bilan ajralib turadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, avtomobil yo'llarining pirovard maqsadi avtomobil transportiga xizmat qilish ekanligini inobatga olinsa, unda avtomobil yo'llarini transport turlari bilan birgalikda qarash zaruriyati yuzaga keladi. Shuning uchun tadqiqotda avtomobil transporti va avtomobil yo'l infratuzilmasini bir butun majmua sifatida tassavvur etib, uni avtotransport tizimi emas, balki «avtoyo'l-transport majmuasi» deb atash taklif etildi.

Temir yo'l va avtomobil transportlari alohida yo'l xo'jaligi tizimiga ega bo'lgan infratuzilmaviy sohaslar ekanligini inobatga olgan holda, temir yo'l transporti, avtomobil transporti va avtomobil yo'l xo'jaligi majmualarining o'zaro birlashuvini «yo'l-transport majmuasi» deb nomlash taklif qilindi (3-rasmga qar.).



3-rasm. «Yo'l-transport majmuasi»ning segmentlashgan tarkibiy tuzilishi¹⁹

¹⁷ Қодиров Т.У. Автомобиль транспорти тизимини самарали инвестициялашнинг иқтисодий механизмлари/ Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Ўз.ФА Иқтисодиёт институти, 2008 й

¹⁸ Громов Н.Н., Панченко Т.А., Чудновский А.Д. Единая транспортная система. –М.: Транспорт, 1987. – с.304.

¹⁹ Muallif tomonidan tuzilgan


O‘zbekiston transporti milliy iqtisodiyot rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etish bilan birga, mamlakatdagi mavjud iqtisodiy resurslarning anchagina qismini iste‘mol qiladi. O‘zbekiston transport tizimiga tegishli transport turlarida kuniga 3,89 mln. tonnaga yaqin har xil yuklar bevosita tashish jarayonida bo‘lib²⁰, bu esa, shu miqdordagi moddiy resurslar iqtisodiyot tarmoqlari ishlab chiqarish jarayoniga va yakuniy iste‘molga vaqtinchalik jalb etilmaganligini bildiradi.

Transport tizimi umumiy daromadining mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbati transportning iqtisodiy ahamiyatini belgilovchi solishtirma ko‘rsatkich bo‘la oladi. Mazkur ko‘rsatkichni «milliy iqtisodiyotdagi transport yuki» deb atash taklif etildi:

$$TY = \frac{\sum_{i=1}^n D_i}{YaIM} \quad (1)$$

bunda TY - mamlakat iqtisodiyotining transport yuki;
 D_i - i turdagi transportning tashish jarayonidan olgan daromadlari, so‘m;
 $YaIM$ - mamlakat yalpi ichki mahsuloti miqdori, so‘m.

O‘zbekiston iqtisodiyoti transport yukining yigirma yillik o‘zgarishini tasavvur etish uchun ushbu ko‘rsatkich parametrlari grafik ko‘rinishda taqdim etildi (4-rasmga qar.). Chizmadan transportning iqtisodiyot tarmoqlari mahsulot tannarxidagi hissasi 2015 yildan boshlab yana barqarorlashuv an‘anasiga ega bo‘lgani ko‘rinib turibdi. Bu ijobiy jihat, eng avvalo, transport turlarining bozor mexanizmlari ta’siri ostidagi raqobat muhitida faoliyat yurita boshlaganligidan dalolat beradi.




4-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotida transport yukining o‘zgarishi²¹

²⁰ bu o‘rinda «bir vaqtning o‘zida» tushunchasini «bir kunda» iborasi bilan almashtirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi, chunki bu miqdor mamlakatimiz barcha transport turlarida tashilgan yuk hajmining 365 ga nisbati ko‘rinishida O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma‘lumoti asosida aniqlangan (M)

²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Mamlakat iqtisodiyotida transportning o‘rnini baholash imkoniyatini beradigan integral ko‘rsatkichlardan yana biri iqtisodiyotning yuk sig‘imidir. Alohida qayd etish lozimki, iqtisodiyot yuk sig‘imining kamayib borish an‘anasiga ega bo‘lishi ijobiy holatdir. Tahlillarning ko‘rsatishicha mamlakatimiz iqtisodiyotining yuk sig‘imi so‘nggi o‘n yillikda muttasil kamayib borib, quyidagi ijobiy trendni namoyish etmoqda (5-rasmga qar.).




5-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotida yuk sig‘imining o‘zgarishi²²

Transport tizimi ulushining YAIM tarkibida 2001 yilga nisbatan deyarli o‘zgarmagan bir holda yuk tashish aylanmasi 2022 yilda 2001 yilgi 55,6 mlrd. tkm.dan 75,5 mlrd. tkm.ga, yo‘lovchi aylanmasi 31,8 mlrd yo‘lovchi km.dan 146,5 mlrd. yo‘lovchi km.ga oshgan. Bu holatni paradoks sifatida qabul qilish mumkin.

Bu tahlillarni transport turlari miqyosida davom ettirish diqqatni jalb etadigan holat mavjudligini ko‘rsatadi. Mavjud statistik ma‘lumotlar tahlili transportda baho indekslarining so‘nggi yigirma yillik o‘zgarishi mamlakat yalpi ichki mahsulotining joriy baholardagi o‘zgarishiga hamohangligini namoyish etadi. Transport ishi yuk transportida – 34,5 foizga, yo‘lovchi transportida to‘rt barobardan ko‘pga oshganda, transportning YAIM dagi ulushi kamaygan bo‘lsada transport xizmati ko‘rsatish narxlarining iqtisodiyot tarmoqlari ichidagi narxlarga nisbatan 2015 yilgacha 2001 yilga qaraganda yalpi ichki mahsulot o‘shish sur‘atlari barobarida qimmatlashgan, undan so‘ng esa qimmatlashuv sur‘atlari sekinlashgan (6-rasmga qar.).

²² Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan



6-rasm. YaIM, transport tariflari va iste'mol baholari indekslarining o'zgarishi²³

Transport xizmatlari o'rtacha tariflarining tahlil davri davomidagi o'zgarishi yuqori bo'lgan bir holatda avtomobil va havo transportida bu jarayon u qadar jadal kechmagan. Bunga avtomobil va havo transporti operatorlarining raqobatli bozor sharoitlarida faoliyat yuritayotganligi sabab bo'lganligi asoslangan²⁴.

O'zbekiston transport tizimi tarmoqlarida yoqilg'i ko'rinishidagi resurs iste'moli ko'lamiga ko'ra sezilarli darajada bo'lib, ushbu soha tannarxida nisbatan katta ulushga egadir. Ma'lumotlarga qaraganda transportda bajariladigan transport ishi birligiga to'g'ri keladigan tannarxning 10,1 foizini yoqilg'i (energiya) va moylash materiallari sarfi tashkil etadi. Transport xizmatlari tannarxining 1998 yildan 2022 yilgacha bo'lgan davrdagi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tahlil davrining boshidagiga nisbatan yoqilg'i-moylash materiallari 11,7 foizdan 10,1 foizgacha kamaygan bo'lsa, ish haqi xarajatlari 8,4 foizdan 11,4 foizgacha, amortizatsiya ajratmalari 3,6 foizdan 15,4 foizgacha ko'tarilgan. Bu o'z navbatida yo'l-transport majmuasida energiya tejavchi zamonaviy harakatlanuvchi vositalaridan foydalanish imkoniyatlarining oshganligi, hamda sohada mehnat qilayotganlar daromadi iqtisodiyotda band bo'lganlarning o'rtacha maoshlari oshishiga hamohang tarzda oshib borayotganligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston transport yo'l-majmuasi resurs salohiyatidan samarali foydalanishning uslubiy asoslarini takomillashtirish”**

²³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

²⁴ Равшанов М.Н. Юк автомобиль транспорти хизмати кўрсатишда баҳо белгилашнинг бозор механизмини шакллантириш (автомобиль транспорти мажмуасининг ҳудудий бирлашмалари мисолида). Иқтисод фанлари номзоди илмий даражаси учун ёзилган диссертация. –Т.: ЎзФА ИИ, 2002.

deb nomlangan uchinchi bobida yo‘l-transport majmuasining resurslarga bo‘lgan ehtiyojiga ta‘sir etuvchi omillar guruhlangan, yo‘l-transport majmuasining iqtisodiy resurslarga bo‘lgan talabini aniqlash uslubiyoti ishlab chiqilgan, yo‘l-transport majmuasida resurslardan oqilona foydalanish usuli modellashtirilgan, avtomobil transportida tashish xizmati ko‘rsatish baholarini aniqlashning istiqbolli uslubiyoti borasida tizimli tadqiqotlar amalga oshirilgan.

O‘zbekiston transport majmuasining resurslarga bo‘lgan ehtiyoji iqtisodiyot tarmoqlarining transport xizmatlariga bo‘lgan talabi doirasida vujudga keladi. Resurslar bozorining faoliyatida ahamiyatli bir necha jihatlar bo‘lib, ulardan eng muhimi, albatta, bozorda shakllangan resurslarga bo‘lgan talab hisoblanadi.

Tadqiqotda aniqlanishicha, yo‘l-transport majmuasi korxonalari tomonidan ishlatiladigan xom-ashyo va energoresurslarning bahosi so‘nggi yigirma yil ichida nomutanosib o‘zgargan. Qurilish materiallarining o‘rtacha narxi 2022 yilda 2000 yilga nisbatan 111,5 barobarga o‘sgan bir paytda, yoqilg‘i energiyasi narxi salkam 212 marotaba oshgan. Dizel yoqilg‘isi esa bu davr ichida qariyb 365 barobarga oshganligini ko‘rish mumkin. Vaholanki, bu davr ichida mamlakat bo‘yicha inflyatsiya 28 barobarga, yuk transporti baho indeksi 159 barobarga oshganligi qayd etilgan.

Davlatning resurs bozorini tartibga solish amaliyoti (3-jadvalga qar.) resurslarga bo‘lgan talabga bevosita ta‘sir etadigan omillardan biri sanaladi. Yo‘l-transport majmuasi uchun o‘ta zarur bo‘lgan yer resursining davlat ixtiyorida ekanligi ushbu resurs bozoridagi talab shakllanishiga hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatadi.

Agarda ehtiyojning mavjud mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik darajasi talabni vujudga keltirar ekan, unda mavjud mablag‘larning cheklanganligi ehtiyoj talabga aylanishi uchun tanlov muammosini hal etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga mas‘ul bo‘lgan boshqaruvchilar tarmoqlar o‘rtasida cheklangan resurslarni iqtisodiy jihatdan oqilona taqsimlash usulini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Bunda quyidagi mutanosiblikka erishish imkoniyatini aniqlash maqsadga muvofiq:

$$\frac{YN_1}{RS_1} = \frac{YN_2}{RS_2} = \dots = \frac{YN_n}{RS_n} \quad (2)$$

бунда $YN_1, YN_2 \dots YN_n$ - mos ravishda, 1,2...n-tarmoqlarning jamiyatga keltiradigan yakuniy nafi;

$RS_1, RS_2 \dots RS_n$ - mos ravishda, 1,2...n-tarmoqlarning resurs sarfi.

Transport majmuasida ishlatiladigan resurslar bozorini tartibga solishda davlatning ishtiroki²⁵

tr №	Resurs nomi	Bozorda davlatning ishtiroki	Izoh
1	2	3	4
1	Tabiiy resurslar	o'ta faol	Ushbu resurslar bozorida davlat yakka mulkdor sifatida mavqega ega bo'lib, «o'yin qoidalari»ni belgilaydi. Bu qoidalar mavjud qonunchilik asosida tartibga solinadi
2	Moliyaviy resurslar	mo'tadil	Moliyaviy resurslar bozori nisbatan erkin bo'lib, davlatning ishtiroki bozorni tartibga solish tamoyillarini o'rnatish bilan chegaralanadi. Mamlakatimizda ushbu resurs bozorining nisbatan rivojlanib borayotganligi sababli transport majmuasi korxonalarining bu bozordagi faolligi kuzatilmogda
3	Ishlab chiqarish vositalari	mo'tadil	Mazkur resurslar bozori to'raligicha erkin bo'lib, davlatning uni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmi muvaffaqiyatli ishlamogda. Transport majmuasi korxonalari bu resurslarga talablarini qondirishda ma'lum darajadagi imtiyozlarga ham ega
4	Mehnat resurslari	faol	Mehnat resurslari bozorini tartibga solish davlatning ustuvor vazifalaridan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mehnat kodeksi» va qator qonunlar yordamida amalga oshiriladi. Transport majmuasi korxonalari mehnat resurslarini ishlatishda bu meyoriy hujjatlarga amal qilishga majburdirlar
5	Tadbirkorlik qobiliyati	mo'tadil	Tadbirkorlik qobiliyati resursi bozorining rivojlanishida davlat boshqaruvining faqat qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlari amal qiladi
6	Bilim	faol	O'zbekistonda bilim, ya'ni innovatsiyalar bozorining rivojlanishi davlatning qo'llab-quvvatlovchi siyosati asosi hisoblanadi

Shu o'rinda, mamlakat iqtisodiyoti va yo'l-transport majmuasi rivojlanishidagi sabab-oqibatli teskari bog'liqlik mavjudligini ta'kidlab o'tish kerak. Bir tomondan, yo'l-transport majmuasining rivojlanishi (sabab) mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyotiga (oqibat) olib kelsa, ikkinchi tomondan, mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyoti (sabab) transport majmuasi rivojlanishida (oqibat) hal qiluvchi mazmun kasb etadi. Qayd etish joizki, bu bog'liqlik yo'l-transport majmuasining resurslarga bo'lgan ehtiyojiga ta'sir etuvchi muhim omil – mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyot darajasi ekanligini isbotlaydi. Iqtisodiyot tarmoqlarining o'sish sur'atlari qo'shimcha ravishda transport xizmatlariga ehtiyojni keltirib chiqaradi.

Yo'l-transport majmuasining resurslarga bo'lgan talabini quyidagi tenglik orqali aniqlash taklif etilmogda:

$$T(R_{ym}) = (T(M_{ym}))' = (T(TX + \Delta ATD + \Delta MAR + \Delta BME))' \quad (3)$$

bunda $T(R_{ym})$ – yo'l-transport majmuasining resurslarga bo'lgan talabi;

$T(M_{ym})$ – yo'l-transport majmuasi mahsulotiga bo'lgan talab;

' – hosila belgisi;

TX – transport xizmatlari miqdori;

ΔATD – aholi turmush darajasidagi o'zgarish;

ΔMAR – madaniy aloqalar rivojlanishi darajasidagi o'zgarish;

ΔBME – boshqa ma'naviy ehtiyojlarni qondirishdagi o'zgarish.

²⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Ifodaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, undagi hosila belgisi matematik hosila tushunchasidan farq qiladi. Bunda hosila tushunchasi, «tarmoqda ishlatiladigan resurslarga bo‘lgan talab tarmoq mahsulotiga bo‘lgan talabdan kelib chiqadi», degan nuqtai-nazarni asoslash uchun xizmat qiladi.

Tarmoqning resurslarga bo‘lgan talabi unda ishlab chiqariladigan mahsulotlarga bo‘lgan talab bilan belgilanadi degan fikrdan kelib chiqqan holda quyidagi yangi model ilk marotaba taklif etildi:

$$\sum_{i=1}^n T(R_i^{ym}) = \sum_{i=1}^n (T(M_{ym}) * RS_i) \quad (4)$$

бунда $T(R_i^{ym})$ – yo‘l-transport majmuasida i-turdagi resursga bo‘lgan talab;
 $T(M_{ym})$ – yo‘l-transport majmuasi mahsulotiga bo‘lgan talab;
 RS_i – yo‘l-transport majmuasi mahsulotining i-turdagi resurs sig‘imi;

Tadqiqotda resurs sig‘imini aniqlash bo‘yicha ifodalarni o‘rniga qo‘yish orqali yo‘l-transport majmuasi tarmoqlarining resurslarga bo‘lgan talabini aniqlash modeli quyidagi ko‘rinishni oldi:

$$T(R_{mat}^{YTM}) = T(M_{YTM}) * \left[\frac{M_M + M_{III} + M_{TTT}}{N * F_s} + \frac{E_{ich}^{TX} + MR_T^{TX} + AYF_T^{TX} + ASF_T^{TX}}{F_s} \right] \quad (5)$$

bunda $T(R_{mat}^{ym})$ - transport majmuasi tarmoqlarining materiallarga bo‘lgan talabi.
 M_M - marketing tadqiqotlari xarajatlari, natural yoki qiymatli ko‘rinishda;
 M_{III} - ilmiy izlanish ishlari olib borish xarajatlari, natural yoki qiymatli ko‘rinishda;
 M_{TTT} - xizmatni tashkiliy-texnologik tayyorlash xarajatlari, natural yoki qiymatli ko‘rinishda;
 N - ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan xizmat miqdori;
 F_s - xizmatni ishlatish davrida olinadigan foydalilik samarasi yig‘indisi, foydali samara birligi natural, qiymatli yoki ballarda o‘lchanadi.
 E_{ich}^{TX} - xizmat birligini ishlab chiqarish uchun energiya sarfi, natural yoki qiymatli ko‘rinishda.
 MR_T^{TX} - xizmat birligini ishlab chiqarish uchun mehnat resursi sarfi, natural yoki qiymatli ko‘rinishda.
 AYF_T^{TX} - xizmat birligini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan aylanma fondlar sarfi, natural yoki qiymat ko‘rinishida;
 ASF_T^{TX} - xizmat birligini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan asosiy fondlar sarfi, natural yoki qiymat ko‘rinishida.

Fikrimizcha, yo‘l-transport majmuasi tarmoqlari faoliyatini boshqarish yoki muvofiqlashtirish vakolatiga ega bo‘lgan idoralar majmuaga oid har bir tarmoqda ishlatiladigan resurslarning mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan meyyori asosida «yo‘l-transport majmuasi mahsulotining resurs sig‘imi» standartlarini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot avvalida taklif etilgan tarmoq yakuniy nafining resurs sarfiga nisbati barcha tarmoqlar uchun teng bo‘lishini nazarda tutgan optimallik modelini yo‘l-transport majmuasida resurs turlari miqdorini optimallashtirish masalasini hal qilishda qo‘llash mumkin.

Marjinalistlar ta‘limoti²⁶ bo‘yicha ishlab chiqarish omillarining xarajatlar samaradorligiga mazkur omillar yakuniy unumdorligining bahosiga bo‘lgan nisbati

²⁶ Блауг М. Маржиналистская революция // Экономическая теория в ретроспективе = Economic Theory in Retrospect. — М.: Дело, 1994. — С. 275-305. — XVII, 627 с. — ISBN 5-86461-151-4.

barcha ishlatiladigan omillar uchun teng bo'lgan holda erishiladi. Ishlab chiqarish omillari samaradorligini aniqlashning bu kabi modeli mafkuraviy tuzum iqtisodchilari tomonidan jiddiy qabul qilinmaganligi uchun ham sobiq ittifoqda resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlashning transportda ham odatiy bo'lib qolgan modellaridan foydalanib kelingan²⁷.

Tarmoqlarning jamiyatga keltiradigan yakuniy nafini aniqlash masalasi amaliy jihatdan nisbatan murakkab vazifa hisoblanadi. Darhaqiqat, alohida ta'kidlash joizki, yakuniylik nazariyasini amaliyotga qo'llashning noqulaylik jihati aynan mana shundadir, ya'ni yakuniy mahsulot unumdorligi, daromadi, xarajati, nafi va shu kabilarni aniqlash mushkul. Bunga tartib bo'yicha qaysi mahsulot yakuniy mahsulot sifatida anglanishi va bu mahsulot keltiradigan naf qanday o'lchanishi zarurligi haqidagi yagona fikr yo'qligi sabab bo'lmoqda.

Tarmoqlarning jamiyat uchun keltiruvchi nafi sifatida tarmoqda yaratiladigan qo'shilgan qiymatni olish taklif etildi. Chunki bu qiymat mamlakatda yaratilayotgan moddiy ne'matlar yig'indisiga hissa deb qaralishi mumkin. Tarmoqning jamiyatga keltiruvchi yakuniy nafi esa, tarmoq tomonidan jalb qilingan eng so'nggi resurslar birligi tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymat bilan o'lchanishi maqsadga muvofiq.

Demak, bundan, tarmoqning jamiyatga keltiruvchi nafi mazkur tarmoq tomonidan yaratiladigan qo'shilgan qiymatga teng ekanligi kelib chiqadi. Tadqiqotda yo'l-transport majmuasi resurslarining tarmoq qo'shilgan qiymatiga ta'siri korrelyatsion tahlil etilib quyidagi bog'liqlik mavjudligi aniqlandi:

$$Y = -771,61 + 0,795x_1 - 0,0011x_2 + 0,899x_3 + 3,981x_4 \quad (6)$$

- bunda
- Y - natijaviy belgi (endogen omil) transport qo'shilgan qiymati;
 - $-771,61$ - ozod had tenglama chizig'i og'ishini belgilovchi ko'rsatkich;
 - x_1 - transportga kiritilgan investitsiyalar hajmi (egzogen omil);
 - x_2 - transport infratuzilmasida band bo'lgan yer maydonlari qiymati (ekzogen omil);
 - x_3 - transportda band bo'lgan kapital (asosiy fond) miqdori (ekzogen omil);
 - x_4 - transportda band bo'lgan mehnat resursi sarfi (ekzogen omil).

Mazkur ekonometrik tahlilning guvohlik berishicha, transportga ta'sir etuvchi omillar ichida yer resursining (x_2) ta'siri teskari chiziqli bog'liqlikni namoyon etgan. Buning sababi transport infratuzilmasida band bo'lgan yer maydonlarining so'nggi yigirma yil ichida deyarli o'zgarishsizligi haqida xulosa qilish mumkin. Qolgan uch resursning (x_1 , x_3 , x_4) bir birlikka o'zgarishi mos ravishda transport qo'shilgan qiymati 0,398 foiz, 0,71 foiz va 4,075 foiz o'zgarishiga sabab bo'lar ekan.


Dissertatsiyadada yo'l-transport majmuasi natijaviy ko'rsatkichi bo'lgan – qo'shilgan qiymat miqdoriga jalb qilingan resurslar miqdorining ta'sirini VAR ekonometrik modeli asosida aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Olingan tahliliy natijalar yer resursining teskari chiziqli, jalb qilingan investitsiyalar hajmi, kapital (asosiy vositalar) miqdori va mehnat resurslari xarajatlarining to'g'ri chiziqli bog'liqligidan dalolat berdi.

²⁷ Афанасьев Л.Л. и др. Единая транспортная система и автомобильные перевозки / Л.Л. Афанасьев, Н.Б. Островский, С.М. Цукерберг. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Транспорт, 1984. – с.333; Шафиркин Б.И. Единая транспортная система и взаимодействие различных видов транспорта. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Высшая школа, 1983. – с.191; Аксенов И.Я. Единая транспортная система. – М.: Высшая школа, 1991. – с.383; Громов Н.Н., Панченко Т.А., Чудновский А.Д. Единая транспортная система. – М.: Транспорт, 1987. – с.304.

Resurslarga bo‘lgan talabning o‘shish sur‘atlarini aniqlash maqsadida tadqiqotda transport tizimi qo‘shilgan qiymatining 2030 yilgacha bo‘lgan davrdagi prognozi ARIMA modeli asosida pessimistik, dinamik va optimistik ssenariylar bo‘yicha aniqlanib, dinamik ssenariy maqbul deb topildi. Prognoz natijalariga ko‘ra 2030 yilga kelib transport qo‘shilgan qiymati solishtirma narxlarda 138,8 foizga ko‘payishi aniqlandi. Bu natijalar muallifga ushbu qo‘shilgan qiymat hajmiga erishish uchun zarur bo‘ladigan resurslar miqdorini aniqlash imkonini berdi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, yo‘l-transport majmuasining bunday rivojlanish sur‘atlari uchun investitsiyalar hajmini 174,6 foizga, kapital (asosiy vositalar) miqdorini 154,4 foizga va mehnat resurslari xarajatlarini 34,9 foizga ko‘paytirish kerak bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida yo‘l-transport majmuasining tashkiliy resurs salohiyatini oshirish yo‘nalishlarini aniqlash bo‘yicha tizimli tadqiqotlar olib borilgan, yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyatini boshqarishda mulklararo hamkorlikni joriy etish istiqbollari aniqlangan, yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyatini oqilona boshqarish imkoniyatini beradigan samarali transport siyosatini shakllantirish hamda yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyati samaradorligini aniqlash uslubiyotlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan.

Ta’kidlash kerakki, yo‘l infratuzilmasi korxonalarini va biznes birligi bo‘lgan avtomobil transporti xizmati ko‘rsatadigan operatorlarning manfaatlarida ziddiyat mavjud (7-rasmga qar.). Biroq, ularning har ikkisi jamiyat va iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan transport xizmatlarini ko‘rsatadigan yagona infratuzilmaviy sohani tashkil etadi. Shunday ekan, bu infratuzilmaviy soha korxonalarini o‘rtasida maqsadli aloqalarni o‘rnatish imkoniyatini beradigan muvofiqlashtirish institutini tashkil etish lozim.




7-rasm. Avtoyo‘l-transport majmuasi korxonalarini manfaatlaridagi ziddiyat²⁸

Tadqiqotda O‘zbekiston Transport vazirligi qoshida yangi institutsional birlik sanaluvchi avtoyo‘l-transport majmuasidagi avtomobil transporti xizmati ko‘rsatuvchi logistik operatorlar va yo‘l xo‘jaligi korxonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish markazini tashkil etish taklif etildi. Xalqaro tajribalarni o‘rganish asosida yangi tuzilmaning boshqaruv strukturasi va vazifalarini belgilab, yetkazib berishlar zanjiri boshqaruvda muvofiqlashtirish funksiyasining ustuvorligini inobatga olish kerak.

²⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Avtoyo‘l-transport majmuasini boshqarishda «mulklararo hamkorlik» tamoyilini amaliyotga qo‘llash imkoniyatini beruvchi modelni yaratish mazkur tadqiqotning uslubiy jihatlaridan biri sanaladi. Avtomobil transportida logistik xizmat ko‘rsatish operatorlarining avtomobil yo‘l infratuzilmasi faoliyatini moliyaviy ta‘minlash va qo‘llab-quvvatlash jarayoni ikki ko‘rinishda amalga oshirilishi mumkin – avtomobil transport operatorlari avtomobil yo‘l xo‘jaligini davlat tomonidan belgilanadigan soliqlar yordamida bilvosita, hamda maxsus jamg‘armalarga maqsadli ajratmalarni kiritish orqali bevosita moliyalashtirish (8-rasmga qar.).

Tadqiqotda mazkur maxsus jamg‘armani avtoyo‘l-transport majmuasi korxonalari o‘rtasida maqsadli aloqalarni o‘rnatish imkoniyatini beruvchi, O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining avtotransport xizmatlari ko‘rsatuvchi logistik operatorlar va yo‘l xo‘jaligi korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish Markazi qoshida tashkil etish tavsiya etildi. Shu tariqa, mazkur jamg‘arma turli mulkchilikka mansub bo‘lgan avtomobil transporti xizmati ko‘rsatish operatorlari va yo‘l xo‘jaligi korxonalari o‘rtasidagi manfaatlar kelishuvi vazifasini o‘taydi.



8-rasm. Avtoyo‘l-transport majmuasini moliyaviy resurslar bilan ta‘minlashning mulklararo hamkorlik tamoyili modeli²⁹

- bunda
- N - avtomobil transporti xizmati ko‘rsatuvchi operatorlar tomonidan maxsus yo‘l jamg‘armasiga ajratiluvchi mablag‘;
 - K - avtomobil transporti xizmati ko‘rsatadigan operatorlar tomonidan davlat budjetiga soliq to‘lovlari;
 - M - avtomobil yo‘l xo‘jaligi korxonalari tomonidan davlat budjetiga soliq to‘lovlari;
 - O - maxsus jamg‘arma tomonidan davlat budjetiga soliq to‘lovlari.

Tadqiqotda totalitar tizimning merosi bo‘lgan ma‘muriy-buyruqbozlik boshqaruv tuzilmasidan xalos bo‘lishda avtoyo‘l-transport majmuasining

²⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

ko'pmulkchilikka asoslangan tizimga aylanishini tezlashtirish taklif etildi (4-jadvalga qar.).

4-jadval

Avtoyo'l-transport majmuasi korxonalarining tashkiliy-huquqiy va mulkiy boshqaruvi tizimi³⁰

tt №	Tarmoq subyektlari	Mavjud tashkiliy-huquqiy shakli	Taklif etilayotgan:		Davlat xususiy sheriklik zaruriyati
			tashkiliy-huquqiy shakl	mulkchilik shakli	
1	2	3	4	5	6
1.	Avtomobil transporti xizmati ko'rsatish korxonalari	XK, MCHJ	MCHJ, AJ	Xususiy, aralash	Shart emas
2.	Avtomobil yo'llarini qurish korxonalari	DUK, XK, MCHJ	MCHJ, AJ	Xususiy, aralash	Shart
3.	Avtoyo'llarni ekspluatatsiya qilish korxonalari	DUK	MCHJ, AJ	Xususiy, aralash	Shart

Tadqiqotda davlatning ayrim mulkiy vakolatlarni berish shakllari quyidagicha bo'lishi mumkinligi aniqlashtirildi: konsessiyalar, maxsus shartnomalar, mahsulot taqsimoti bo'yicha kelishuvlar, qo'shma korxonalar.

O'zbekistonda davlat-xususiy sherikligining konsessiya shaklini joriy etish muammolari yetarli darajada o'rganilmaganligi sababli muallif tomonidan yo'l-transport majmuasi davlat mulkini boshqarishda konsession munosabatlarni qo'llash sohalari aniqlashtirildi (5-jadvalga qar.).

5-jadval

Yo'l-transport majmuasi resurs salohiyatini boshqarishda konsession shartnomalarni qo'llash mumkin bo'lgan loyihalar³¹

tt №	YTM tarmoqlari	Loyiha	Konsessiya muddatlari
1	2	3	4
1.	Avtoyo'l-transport majmuasi	To'lovli avtomobil yo'llari To'lovli ko'priklar Motelllar Karyerlar Mehmonxonalar Umumovqatlanish muassasalari Texnik xizmat ko'rsatish shaxobchalari Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlovchi tizimlar Avtovokzallar	25-30 yilga 25-30 yilga 10 yilga 10 yilga 10 yilga 10 yilga 10 yilga 5 yilga 10 yilga
1	2	3	4
2.	Temir yo'l transporti	Yuqori tezlikda harakatlanishni ta'minlovchi alohida temir yo'l infratuzilmasi (temir yo'l, vokzal, depo va h.k.)	

³⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

³¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Mazkur tadqiqot doirasida mamlakat avtomobil yo‘l xo‘jaligi rivojlanishi tarixida hali amaliyotda bo‘lmagan to‘lovli avtomobil yo‘lini qurish bo‘yicha tavsiya ishlab chiqildi. Muallif tomonidan xalqaro avtomagistral, ya‘ni M-39 «Olmaota – Bishkek – Toshkent – Termiz» avtomagistrali 886-910 kilometri qismida to‘lovli yo‘l qurish g‘oyasi nazariy texnik iqtisodiy jihatdan asoslandi. Yo‘lning bu qismi hozirda Qozog‘iston Respublikasi hududidan o‘tganligi uchun deyarli foydalanilmaydi.

Muallifning fikricha, aynan mana shu 24 kilometr masofadagi avtomobil yo‘lini xalqaro talablar asosida qayta qurish, hamda bu to‘lovli yo‘lni boshqarishni yangi tashkil etiladigan qo‘shma korxonaga shaklidagi aksiyadorlik jamiyatiga topshirish orqali jonlantirish maqsadga muvofiq.

Amalga oshirilgan hisob-kitob va kuzatuvlar natijasida olingan ma‘lumotlar mazkur xalqaro to‘lovli yo‘lni ishga tushirish xarajatlarini aniqlash imkonini berdi (6-jadvalga qar.).

6-jadval

Xalqaro to‘lovli yo‘lni ishga tushirish samaradorligi³²

T/r	Tadbirlar va ko‘rsatkichlar	Miqdori va o‘lchov birligi	qiymati, mln. so‘m
1	2	3	4
1.	Xalqaro 1-toifadagi (4 qatorli, asfalt-beton qoplamali) avtomobil yo‘lini ko‘priklar va beton-monolitli devorlar bilan o‘ralgan holda qurish	24 km	593573,5
2.	Yo‘l bo‘ylab videokuzatuv qurilmalarini o‘rnatish	20 nuqtada	199,5
3.	«SOPO» rusumidagi yaxmalakka qarshi sharoitni ta‘minlovchi uskunani o‘rnatish	1500 m	14586
4.	To‘lov tizimi o‘rnatilgan o‘tish joylarini qurish	2 ta	15000
5.	Zamonaviy tarozilarni o‘rnatish	2 ta	55000
6.	Servis ko‘rsatuvchi shaxobchalarni qurish	2 ta	3750
7.	Metall to‘siqlarni o‘rnatish	24 km	17500
8.	To‘lovli yo‘lni joriy ta‘mirlash va saqlash xarajatlari	24 km	2577,5
9.	II toifadagi (2 qatorli, asfalt-beton qoplamali) avtomobil yo‘lini qurish bilan bog‘liq xarajatlar	24 km	134211
10.	Jami xarajatlar		836397,5
11.	Harakat jadalligi	34934 avt/sut	
12.	Kunlik tushum		394,7
13.	Yillik tushum		144068,4
14.	Investitsiyalarni qoplash davri, yil	5,8	

Mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida avtomobil yo‘llarining sof ulushini aniqlash, ya‘ni avtomobil yo‘llari resurs salohiyatining iqtisodiyot tarmoqlariga

³² Hisob-kitoblar muallif tomonidan amalga oshirilgan

iqtisodiy ta'sirini ilmiy tomondan asoslash juda murakkab jarayon bo'lib, hozirgi kungacha hal qilinmagan muammolar sirasiga kiradi.

Mazkur tadqiqotda avtomobil yo'llarining mamlakat iqtisodiyoti ravnaqiga qo'shishi mumkin bo'lgan potensial hissasini o'zida namoyon etuvchi zamonaviy ko'rsatkich taklif etilib, u shartli ravishda «avtoyo'l resursi» deb ataldi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash bo'yicha hisob-kitoblar natijalari quyida keltirilmoqda (7-jadvalga qar.).

Tadqiqot natijalari O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tizimlashtirilgan.

7-jadval

O'zbekiston Respublikasida avtomobil yo'llarining «Avtoyo'l resursi»³³

Iqtisodiyot tarmoqlari	Tarmoqning YaIMdagi ulushi, %	Avtoyo'l-transport majmuasining tarmoq mahsulotlari tannarxidagi ulushi, %	Tarmoqning YaIMdagi ulushida avtoyo'l-transport majmuasi ulushi, %	Avtoyo'l-transport majmuasining umumiy ulushida tarmoqlar ulushi, %
1	2	3	4	5
Sanoat	24,84	4	0,994	12,72
Qishloq xo'jaligi	23,47	7	1,643	21,03
Qurilish	6,25	9,5	0,594	7,60
Transport va aloqa	6,50	35	2,276	29,15
Savdo va umumovqatlanish	6,51	8	0,521	6,67
Boshqa sohalar	25,64	0,3	0,077	0,99
Jami	93,21		6,104	100
Avtoyo'l-transport majmuasining mamlakat YaIMga qo'shgan ulushi, %	6,10			
Avtomobil yo'llarining sof ulushi, %	6,1-2,276=3,824%			
Avtomobil yo'llariga sarflangan mablag', YaIMga nisbatan % da.	0,5613			
"Avtoyo'l resursi "	3,2627 %			

Tadqiqotlar natijasida amalga oshirilgan hisob-kitoblar avtomobil yo'llarini qurish, ta'mirlash va undan foydalanish xarajatlarini moliyalashga sarflanadigan investitsiyalar mamlakat YaIMning 3,824 foizi miqdorigacha bo'lishi eng optimal ekanligini ko'rsatmoqda. Aynan shu miqdordagi investitsiyalar yo'l-transport majmuasi infratuzilmasining YaIM o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sirini ta'minlashi, avtoyo'l resursining yalpi ichki mahsulotning 3,2627 foiz miqdorida bo'lishi esa tarmoqqa xususiy kapitalni kirib kelishini rag'batlantirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi YaIMning barqaror o'sishini ta'minlash uchun avtomobil yo'llari

³³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

tizimiga sarflanishi zarur bo'lgan investitsiya miqdori keyingi to'rt yil uchun prognoz qilindi (8-jadvalga qar.).

8-jadval

Avtomobil yo'llari tizimiga sarflanadigan investitsiyalarning optimal miqdori³⁴

tr №	Ko'rsatkich nomi	yillar			
		2024	2025	2026	2027
1	2	3	4	5	6
1.	Yalpi ichki mahsulot hajmi, mlrd. so'm	1206778,2	1393861,47	1595967,39	1813095,98
2.	Avtoyo'l tizimiga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan investitsiyalarning optimal miqdori, mlrd. so'm	46219,61	53384,89	61125,55	69441,58

Tadqiqotda aholining avtotransport xizmatlariga erishish imkoniyatini aniqlash uslubiyoti taklif etildi va quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$T_{int}^{yol} = \frac{P_{ykm}^{AYTM}}{L_{qq}^{ay}} \quad (7)$$

bunda P_{ykm}^{AYTM} – avtoyo'l-transport majmuasida bajarilgan transport ishi, ykm;
 L_{qq}^{ay} – mamlakatdagi mavjud qattiq qoplamali umumfoydalanishdagi avtomobil yo'llari uzunligi, km.

Ushbu ko'rsatkich miqdori mavjud statistik ma'lumotlardan foydalanib 1940 - 2022 yillar oralig'ida aniqlandi (9-jadvalga qar.).

Ushbu ko'rsatkichning yil sayin tushib ketayotganligi ijobiy hol bo'lib, u o'z navbatida, yo'lovchi transporti xizmatlarining aholi uchun qulay bo'lib borayotganligidan darak beradi.

9-jadval

Avtoyo'l-transport majmuasida integral transport imkoniyati ko'rsatkichi³⁵

№ t/r	Ko'rsatkichlar	yillar									
		1940	1950	1960	1970	1980	1989	2000	2010	2020	2022
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1.	Qattiq qoplamali avtoyo'llarda yo'lovchi tashish intensivligi, ykm/km	14894	16667	240606	364093	312150	330639	319178	1600000	2676123	3053613
2.	Aholi soni, ming kishi	6551	7120	8119	11799	15391	19905	24908	28559	34037	36025
3.	Integral transport imkoniyati, (aholi soni/tashish intensivligi)	439,8	427,2	33,7	32,4	49,3	60,2	78,0	17,9	12,7	11,8

³⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

³⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Tadqiqotda yo‘l-transport majmuasining iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish imkoniyatini o‘zida aks ettiruvchi modelga erishildi.

$$\frac{YU_{kap}}{B_{kap}} = \frac{YU_{meh}}{B_{meh}} = \frac{YU_{yer}}{B_{yer}} = \frac{YU_{inv}}{B_{inv}} = \frac{\sum_{i=1}^n (YU_{kap_i} N_{kap_i})}{\sum_{i=1}^n (B_{kap_i} N_{kap_i})} = \frac{\sum_{i=1}^n (YU_{meh_i} N_{meh_i})}{\sum_{i=1}^n (B_{meh_i} N_{meh_i})} = \frac{\sum_{i=1}^n (YU_{yer_i} N_{yer_i})}{\sum_{i=1}^n (B_{yer_i} N_{yer_i})} = \frac{\sum_{i=1}^n (YU_{inv_i} N_{inv_i})}{\sum_{i=1}^n (B_{inv_i} N_{inv_i})} \quad (9)$$

Ushbu model yo‘l-transport majmuasida ishlatiladigan iqtisodiy resurslar yakuniy unumdorligining mazkur resurslar birligi bahosiga nisbati teng bo‘lganida, resurs salohiyatidan oqilona foydalanish imkoniyati tug‘ilishini nazarda tutadi. Tengsizlik esa resurs salohiyatidan foydalanishda kamchilik borligini ko‘rsatadi.

Amalga oshirilgan ekonometrik tahlil natijalariga (6-ifoda) ko‘ra yer resursining transport qo‘shilgan qiymatiga ta’siri yer maydonlaridan foydalanish huquqining transport infratuzilmasi xo‘jalik subyektlariga beminnat berilganligi bois manfiy ekanligi sababli qolgan uch ko‘rsatkich asosida hisoblangan natijalar keltirilmoqda (10-jadvalga qar.).

10-jadval


O‘zbekiston yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini naflilik modeli asosida baholash³⁶

	Ko‘rsatkichlar	yillar					
		2003	2005	2010	2015	2022	
1	2	3	4	5	6	7	
1.	Kapitalning yakuniy unumdorligi/ Kapital sarfi	$\frac{YU_{kap}}{B_{kap}}$	0,0414	0,0380	0,0477	0,0233	0,0461
2.	Mehnatning yakuniy unumdorligi/ Mehnat sarfi	$\frac{YU_{meh}}{B_{meh}}$	3,4634	2,6108	2,5359	0,8465	1,0378
3.	Investitsiya yakuniy unumdorligi/ Investitsiya hajmi	$\frac{YU_{inv}}{B_{inv}}$	0,1206	0,0915	0,0444	0,0591	0,0429

Model bo‘yicha amalga oshirilgan tahlillardan ma‘lumki, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ijobiy samarasi tufayli yo‘l-transport majmuasida resurslardan foydalanish samaradorligi ham yaxshilanib bormoqda. Ammo tarmoqda mavjud resurslardan optimal foydalanishga erishishda mehnat resurslarining unumdorligini, kapital – asosiy fondlar va jalb qilinishi lozim bo‘lgan investitsiyalar miqdorini yanada oshirish talab etiladi.

Model asosida yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyatini oqilona boshqarish algoritmi taklif etilmoqda (9-rasmga qar.).

³⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



9-rasm. Yo'l-transport majmuasi resurs salohiyatini oqilona boshqarish algoritmi³⁷

Yo'l-transport majmuasi resurs salohiyatini oqilona boshqarish funksiyasini Transport vazirligining "Strategik rejalashtirish va metodologiya" boshqarmasi bajarishi mumkin.

"Respublika resurs sig'imi monitoring Markazi" esa ushbu boshqaruv algoritmi asosida mamlakat iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan jamiyat resurslaridan oqilona foydalanish jarayonini monitoring qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tadqiqotda yo'l-transport majmuasi resurs samaradorligining mamlakat logistika samaradorligiga ta'siri «ekspert usuli» yordamida aniqlandi. Bunda ekspertlar sifatida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari rahbarlari, davlat boshqaruv idoralarning mutaxassislari, sohaga tegishli ilmiy tadqiqot markazlari va oliy o'quv yurtlarining ilmiy xodimlari jalb etildi. Tadqiqot natijasida quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan ma'lumotlar olindi (11-jadvalga qar.).

³⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Yo'l-transport majmuasi resurs samaradorligining mamlakat logistika samaradorlik indeksiga ta'sir darajasi³⁸

tt №	LSI subindekslari	Shartli belgisi	YTMS bog'liqlik darajasi	Bog'liqlikni ranglash	YTMSning LSI subindeksiga ta'siri
1.	Bojxona ishi sifati subindeksi	<i>I_{bis}</i>	past	1,17	0,234
2.	Transport infratuzilmasi subindeksi	<i>I_{tis}</i>	yuqori	4,78	0,956
3.	Xalqaro tashuvlar sifati subindeksi	<i>I_{xts}</i>	yuqori	4,77	0,954
4.	Logistik xizmatlar sifati subindeksi	<i>I_{lxs}</i>	o'rta	3,06	0,612
5.	Kuzatish va nazorat sifati subindeksi	<i>I_{kns}</i>	o'rta	3,00	0,6
6.	O'z vaqtida tashish sifati subindeksi	<i>I_{ovts}</i>	yuqori o'rta	4,00	0,8
	<i>O'rtacha ko'rsatkich:</i>			3,46	0,692

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, yo'l-transport majmuasi resurs samaradorligining bir birlikka oshishi, o'z navbatida, mamlakat logistika samaradorligi indeksining 0,692 birlikka ko'tarilishiga yordam berar ekan, ya'ni:

$$\Delta I_{LS} = 0.692 \Delta S_{ytms}$$

XULOSA

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari asosida olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar olindi

1. Insoniyat rivojlanish bosqichlari mavjud resurslarga bo'lgan munosabatning o'zgarishiga qarab davrlarga bo'lib chiqildi, hamda resurslarga munosabatning avlodlar va sivilizatsiyalar almashinuvi asnosida shakllanib borishining o'ziga xos xususiyatlari aniqlanib, xronologik tasnifi keltirildi. Iqtisodiy taraqqiyotni belgilab bergan resurslarga munosabatning islomga xos "islomiy resurs taqsimoti fenomeni" ilmiy atama sifatida qo'llanildi. Unda mehnat, kapital va tadbirkorlik kabi iqtisodiy resurslardan hamkorlikda foydalanish bo'yicha munosabatlar mavjudligi aniqlandi.

2. Tadqiqotda "iqtisodiy salohiyat" va "resurs sig'imidan samarali foydalanish" tushunchalarining mohiyatini ochib beruvchi mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi. Birinchi yondashuv «iqtisodiy salohiyat» ta'riflaridagi farqlarni aniqlash imkoniyatini berish bilan birga, uning mohiyati, tarkibiy elementlari, «milliy boylik», «iqtisodiy rivojlanish darajasi» kabi kategoriyalar bilan o'zaro bog'liqligini anglashga yordam beradi. "Salohiyat" atamasi tarmoqqa nisbatan ishlatilganda nafaqat tarmoqning ishlab chiqarish imkoniyatlarini, balki uning mavjud resurslarni oqilona ishlatish orqali iste'molchilar ehtiyojini maksimal darajada qondirish qobiliyatini tavsiflashi kerak. Ikkinchi yondashuv resurslardan

³⁸ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

samarali foydalanishda boshqaruv tizimini optimallashtirish va iqtisodiyotning oqilona resurs sig'imini ta'minlash ustuvor vazifalar sarasiga kirishini nazarda tutadi. Ushbu vazifalar iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmini har tomonlama kengroq joriy etish bilan birga innovatsion yondashuvni ta'minlovchi tadbirkorlik qobiliyatidan samarali resurs sifatida kengroq foydalanish orqali o'z yechimini topadi.

3. Mamlakat iqtisodiyotida resurslardan foydalanish holati tahlil etilib, quyidagi xulosalar olindi: birinchidan, so'nggi yillarda iqtisodiy resurslar iste'moli hajmlarining oshib borish holati kuzatilayotgan bo'lib, bu barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga mos keladi; ikkinchidan, iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan yoqilg'i-energetika resurslari iste'molidagi o'zgarishlar mamlakat iqtisodiyotining resurs sig'imi kamayib borayotganligidan darak beradi; uchinchidan, asosiy kapitalga sarflanadigan investitsiyalar tarkibida korxonalar mablag'lari ulushining ko'payib borayotganligi iqtisodiyotda barqaror indutsiyalashgan investitsion muhitning shakllanayotganligini ko'rsatadi; to'rtinchidan, mamlakat iqtisodiyotining resurs sig'imi o'zgarishidagi ijobiy tendensiyalar umumiy iqtisodiy, jumladan yo'l-transport majmuasi iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish imkonini yaratayotganligini qayd etish mumkin.

4. Transportning moddiy ishlab chiqarish sohalari bilan bir qatorda yuqori qo'shimcha qiymat hosil qiluvchi tarmoqlar safiga kirishi to'g'risida mualliflik nuqtai nazarini shakllantirildi. Bunda transport tizimi – jamiyatning moddiy oqimlarni amalga oshirishga bo'lgan talabini qondiradigan, yuqori darajadagi axborot almashinuvi asosida faoliyat yuritadigan aloqa yo'llari, transport xizmati ko'rsatadigan operatorlar va vositalarining logistika nuqtai-nazaridan mutanosiblashgan yig'indisini o'zida mujassamlashtiradi.

5. Temir yo'l va avtomobil transporti turlari alohida yo'l xo'jaligi tizimiga ega bo'lgan infratuzilmaviy sohalar ekanligi sababli temir yo'l transporti, avtomobil transporti va avtomobil yo'l xo'jaligi majmualarining o'zaro tizimli birlashuvini «yo'l-transport majmuasi», avtomobil yo'l xo'jaligi va avtotransport xizmati ko'rsatadigan operatorlar faoliyatini umumlashtiruvchi sohani «avtoyo'l-transport majmuasi» iboralari bilan atashga oid mualliflik taklifi berildi.

6. Yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha transport xizmatlarini ko'rsatishda yuzaga keladigan daromadlar yig'indisini yalpi ichki mahsulotga nisbati transportning iqtisodiy ahamiyatini belgilovchi solishtirma ko'rsatkich bo'la olishi va mazkur ko'rsatkichni «milliy iqtisodiyotdagi transport yuki» deb nomlash tavsiya etildi. Bir birlik YaIMga to'g'ri keluvchi transport yukining pasayib borishi ijobiy hisoblanib, iqtisodiyotning resurs sig'imi pasayishiga ham olib keladi.

7. Resurs sig'imini aniqlash usulidan foydalangan holda yo'l-transport majmuasi tarmoqlarining materiallarga bo'lgan talabini aniqlash modeli ishlab chiqilib, uni qo'llagan holda majmua tarkibidagi har bir tarmoqda ishlatiladigan resurslarning mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi me'yori asosida «yo'l-transport majmuasi mahsulotining resurs sig'imi» standartlarini ishlab chiqish mumkin.

8. Tadqiqot doirasida davlat va xususiy sheriklik doirasida yo'l-transport majmuasi faoliyatida xususiy biznesning ishtirokini nazarda tutadigan konsession shartnomalar asosida resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshiruvchi

bir necha yo‘nalishlarning ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik ekanligi asoslab berildi. Yo‘l-transport majmuasi amaliyotida mulklararo hamkorlikning konsessiya turini qo‘llash imkoniyatini beruvchi to‘lovli xalqaro avtomobil yo‘lini qurishning texnik iqtisodiy shartlari asoslandi.

9. Avtomobil yo‘llarining mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga qo‘shgan hissasini baholash uchun «avtoyol resursi» deb nomlangan ko‘rsatkich taklif etildi. Ushbu ko‘rsatkichni amaliyotga joriy etish avtomobil yo‘llari tizimiga xususiy kapitalning kirib kelishini rag‘batlantiruvchi oqilona investitsiya hajmini prognozlash imkoniyatini beradi.

10. ARIMA modeli asosida transport tizimi qo‘shilgan qiymatining pessimistik, dinamik va optimistik ssenariylari bo‘yicha 2030 yilgacha prognozi amalga oshirildi. Prognoz natijalariga ko‘ra 2030 yilga kelib transport qo‘shilgan qiymati solishtirma narxlarda 138,8 foizga ko‘payishi, bunga erishish uchun investitsiyalar hajmini 174,6 foizga, kapital (asosiy vositalar) miqdorini 154,4 foizga va mehnat resurslari xarajatlarini 34,9 foizga ko‘paytirish kerak bo‘ladi.

11. Yo‘l-transport majmuasi resurslaridan oqilona foydalanish modeli ishlab chiqilib, unga asosan mehnat resurslarining unumdorligini, kapital – asosiy fondlar va jalb qilinishi lozim bo‘lgan investitsiyalar miqdorini yanada oshirish hisobiga yo‘l-transport majmuasida mavjud resurslardan optimal foydalanishga erishish mumkinligi aniqlandi. Yo‘l-transport majmuasi resurs salohiyatini yakuniy naflilik modeli asosida oqilona boshqarish algoritmi taklif etildi.

12. Yo‘l-transport majmuasi resurs samaradorligining Jahon banki tomonidan aniqlanuvchi mamlakat logistika samaradorligi indeksidagi ta‘sirini aniqlash bo‘yicha «ekspert usuli»ni qo‘llagan holda tadqiqotlar amalga oshirilishi natijasida yo‘l-transport majmuasi resurs samaradorligining bir birlikka oshishi, o‘z navbatida, mamlakat logistika samaradorligi indeksining 0,692 birlikka ko‘tarilishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 15/31.12.2020.I.09.04 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

РАВШАНОВ МАЛИК НАИМОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ПОВЫШЕНИЯ
ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ РЕСУРСНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ
ДОРОЖНО-ТРАНСПОРТНОГО КОМПЛЕКСА**

**08.00.13 – Менеджмент
08.00.05 – Экономика сферы услуг**

**АВТОРЕФЕРАТ
докторской диссертации (DSc) по экономике**

Ташкент-2024 год

Тема диссертации доктора наук (Doctor of Science) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за № В2023.2.DSc/Iqt517

Диссертационная работа выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.tstu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научные консультанты:

Икрамов Мурат Акрамович
доктор экономических наук, профессор

Саматов Гаффор Аллакулович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Тураев Баходир Хатамович
доктор экономических наук, профессор

Саидов Машъал Самадович
доктор экономических наук, профессор

Пардаев Мамаюнус Каршибаевич
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский государственный технический университет

Защита диссертации состоится « 18 » Май 2024 г. в 10.00 часов на заседании Научного совета DSc.15/31.12.2020.1.09.04 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном транспортном университете. (Адрес: 100167, город Ташкент, улица Темирийулчилар, дом 1. Тел/факс.: (99871) 293-57-54, e-mail: rector@tstu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (зарегистрирована за № 162). (Адрес: 100167, город Ташкент, улица Темирийулчилар, дом 1. Тел/факс.: (99871) 293-57-54).

Автореферат диссертации разослан « 03 » Май 2024 года.

(реестр протокола рассылки № 5 от « 03 » Май 2024 года)



О.К. Абдурахмонов
Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
экономических наук, профессор

М.И. Акбаров
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, кандидат
экономических наук, доцент

А.А. Гуламов
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению учёных
степеней, доктор экономических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях усиления глобальной конкуренции в мире при выборе рациональных методов и механизмов эффективного использования экономических ресурсов особое внимание уделяется учёту интересов участников экономических отношений и возможности удовлетворения их потребностей. Развитие транспортной системы даёт возможность снижения транспортных затрат в себестоимости продукции и услуг, а это, в свою очередь, способствует повышению конкурентоспособности и обеспечению безопасности национальной экономики. В развитых странах доля транспорта в структуре ВВП достигает 13-14%, а мировой транспортный рынок оценивается в 2,7 трлн долларов, что составляет в среднем 6,91% от ВВП¹. С учётом важности отрасли во всем мире является актуальной проблема повышения эффективного управления ресурсным потенциалом транспортной системы.

В условиях усиления глобальной конкуренции в мире проводится ряд исследований, направленных на решение задач повышения эффективности управления ресурсным потенциалом дорожно-транспортного комплекса. Научные теоретико-методологические основы управления экономическими ресурсами, а также совершенствование методики определения потребности в них, разработка интегрированной системы оценок экономических возможностей дорожно-транспортной системы страны, а также модели рационального использования ресурсов, определение направлений повышения организационных ресурсных возможностей комплекса, формирование эффективной транспортной политики по рациональному использованию ресурсных возможностей, эконометрическая оценка и прогнозирование использования ресурсных возможностей дорожно-транспортного комплекса, совершенствование методик определения эффективности использования ресурсного потенциала дорожно-транспортного комплекса и логистики в стране являются важными приоритетными направлениями научных исследований.

В Узбекистане, в качестве одного из важных направлений повышения конкурентоспособности экономики на текущем этапе социально-экономического развития уделяется особое внимание рациональному управлению ресурсным потенциалом в производстве товаров и услуг, а также удовлетворении потребностей. В стратегии «Узбекистан – 2030» в рамках обозначенной цели - «Углубление интеграции Республики Узбекистан в мировые транспортно-логистические сети и повышение потенциала национальной транспортной системы», предусмотрены и определены следующие задачи – «увеличение объёма перевозимых транзитных грузов через территорию республики до 16 миллионов тонн; сокращение сроков перевозки грузов в северном направлении железнодорожным транспортом на 40%; увеличение объемов услуг по перевозке пассажиров и грузов в 3 раза;

¹ <https://data.worldbank.org/indicator/is.air.good.mt.k1>

увеличение доли электрифицированных железных дорог до 65%; строительство и ремонт 56 тысяч километров автомобильных дорог; переход на рыночные принципы формирования тарифов на услуги пассажирских и грузовых перевозок на железнодорожном транспорте и привлечение в отрасль частных и иностранных операторов; строительство 5,5 тысяч километров дорог с цементобетонным покрытием от районных центров до сельских населенных пунктов; строительство автомобильных дорог на основе государственно-частного партнерства по маршрутам Ташкент-Самарканд и Ташкент-Ферганская долина; полное покрытие городов и районов общественным транспортом, увеличение количества новых автобусов до 5 тысяч и количества электробусов до 2 тысяч; строительство новых высокоскоростных железных дорог по маршрутам Ташкент-Самарканд, Самарканд-Навои-Бухара, увеличение количества пассажирских перевозок на высокоскоростных поездах в 2,5 раза². В этой связи, актуальной является разработка методологических основ эффективного управления ресурсным потенциалом отраслей дорожно-транспортного комплекса для эффективной реализации поставленных задач, доведения доли транспортной системы в ВВП до общемировых показателей, обеспечения стабильности цен на сырье и энергоресурсы, привлеченных предприятиями дорожно-транспортного комплекса, обеспечения сбалансированности темпов развития видов транспорта к темпам развития экономики страны.

Указы и постановления президента Республики Узбекистан ПФ-158 от 11 сентября 2023 года «О стратегии “Узбекистан - 2030”», ПФ-94 от 14 июня 2023 года «О мерах по коренному совершенствованию системы государственного управления в сфере транспорта», ПФ-5647 от 1 февраля 2019 года «О мерах по коренному совершенствованию системы государственного управления в сфере транспорта, ПП-3422 от 2 декабря 2017 года «О мерах по совершенствованию транспортной инфраструктуры и диверсификации внешнеторговых маршрутов в 2018-2022 годах», а также результаты данного исследования служат в определенной степени реализации тех задач, которые определены в вышеперечисленных и других нормативно-правовых документах данного направления.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Исследования по совершенствованию методологии управления транспортными системами и повышения ресурсного потенциала проводятся ведущими зарубежными центрами и высшими учебными заведениями. В частности, в таких научных учреждениях, как: Институт «Economic

² Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-158 от 11 сентября 2023 года «О стратегии “Узбекистан - 2030”». - <https://lex.uz/docs/6600413>

Development Institute» (Worldbank, США), Институт «Institute for Transportation and Development Policy» (США), European Conference of Ministers of Transport (ЕС), World Road And Transport Organization (IRU) (Швейцария), Московская транспортная академия, Московский государственный автомобильно-дорожный технический университет (МАДИ), Сибирский государственный автомобильно-дорожный университет (СИБАДИ), Киевский национальный транспортный университет (КАДИ).

В результате научных исследований по совершенствованию методологии повышения эффективности управления ресурсным потенциалом дорожно-транспортного комплекса на мировом уровне достигнуты следующие научные результаты: исследованы вопросы развития дорожно-транспортного комплекса на основе инклюзивности, равенства и общности в достижении транспортных услуг (Institute for Transportation and Development Policy); обоснованы значения ресурсосберегающих подходов в развитии транспортной системы (European Conference of Ministers of Transport); разработаны научные подходы по вопросам интеграции показателей деятельности дорожно-транспортного комплекса (World Road And Transport Organization); усовершенствованы методы определения влияния ресурсосбережения дорожно-транспортного комплекса на экономику страны (Московский государственный автомобильно-дорожный технический университет (МАДИ), Сибирский государственный автомобильно-дорожный университет (СИБАДИ), Киевский национальный транспортный университет (КАДИ))

В мире проводится ряд научных исследований по совершенствованию методологии повышения эффективности управления ресурсным потенциалом дорожно-транспортного комплекса, в том числе, по следующим направлениям: повышение потенциала транспортной системы в процессе глобализации мировой экономики; разработка дорожно-транспортной политики, адаптированной к кризисным геополитическим обстоятельствам; совершенствование организационно-экономического механизма единой транспортно-логистической системы; государственная поддержка процесса оптимального обеспечения транспортной отрасли ресурсами; оценка потенциала транспортной системы; определение синергетического эффекта в дорожно-транспортном комплексе.

Степень изученности проблемы. Фундаментальные основы проблем развития экономических отношений, управления субъектов предпринимательства, в том числе, в сфере услуг были исследованы такими зарубежными учёными, как J.M. Keynes, R. G. Ehrenberg, R. S. Smith, J.A. Schumpeter, P.F Drucker³ и др. Целый ряд ученых стран СНГ проводят исследования по проблемам определения экономического потенциала. В

³ J.M. Keynes. The General Theory of Employment, Interest, and Money. 2018. – p.430. <https://www.pdfdrive.com/search?q=John+Maynard+Keynes>; Ronald G. Ehrenberg, Robert S. Smith. Modern Labor Economics: Theory and Public Policy, Global Edition. - Pearson. «Taylor & Francis Group», 2014. –p. 688.; Schumpeter, Joseph A. The Theory of Economic Development (1949). JaiGyan, Digital Library of India Item 2015.187354; Drucker, Peter F. The practice of management. - London: Butterworth-Heinemann, 2007. – p. 355. internetarchivebooks

частности, оценка экономического потенциала и вопросы его эффективности изучались учёными И.И. Феклистовым, О.А. Жигуновой, А.С. Молчаном, А.И. Морозом, и др., пути совершенствования использования ресурсов и методология исследования экономического потенциала отражены в трудах таких учёных, как Р.Р. Абдураупов, Луковцева А.К., Д.В. Пушная, А.В. Васильчиков, А.В. Богатырев, Б.Ж. Махмудов, А.Е. Сафронов⁴ и др.

Развитие транспортной системы и её экономическая эффективность нашли своё отражение в научных исследованиях М.О. Сураевой, В.Ф. Лукиных, Н.Ю. Сандаковой, Е.Н. Гарманова, М.А. Икрамова, З.Х. Саидова, Г.А. Саматова, Я.К. Карриевой, А. А. Гуламова, Ж.С. Файзуллаева, А.А. Зохидова, Г.М. Касимова⁵ и др., вопросы управления экономическими системами сферы услуг, в том числе, транспортного обслуживания

